

**O'QUVCHILARNI INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIGA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASI**

***Mirzayeva Dilfuzaxon Akram Qizi***

*Asaka tumani 10-umumiy o'rta ta'lif maktabi informatika fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarni informatika fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga kompetentligini rivojlantirish masalasi o'rzanildi va taxlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** o'quvchilar, kompyuter texnika vositalari, informatika fani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqatga kirisha oladigan, ta'lif muassasasida olgan bilimlarini hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalab kamol topishlarida katta e'tibor qaratgan. Buning uchun esa o'quvchilarimizni boshlang'ich sinflardan boshlab bunga tayyorlab borish kerak. Ya'ni, boshlang'ich fanlar bo'yicha chuqur bilim berish, chet tillarini puxta o'rgatish va axborot texnologiyalari bo'yicha kerakli zarur malakalarni shakllantirib borish lozim. Ma'lumki, hozirgi kunda axborotlar olamida yashayapmiz. O'qishda ham, ishda ham, kundalik faoliyatda ham kompyuter texnika vositalariga duch kelamiz va bularsiz bugungi kunimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Shunday ekan o'quvchilarimizga informatika fanidan chuqur bilim berish, kompyuter va uning boshqa texnik vositalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga o'rgatish kerak. O'quvchilar esa zaruriy axborotga ega bo'lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganishi kerak. Shu bilan birgalikda o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlari uchun shakllantirilishi zarur. Shunga ko'ra,

bu vazifalarni ta’lim muassasida o’quvchilarni o’quv predmetlarini o’rganish jarayonida zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarga ega qilish bilan birqalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo’llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun kompetentlik yondoshuvga asoslangan holda o’qitish kerak.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – o’quvchilarda egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’limdir.

Tayanch kompetentsiyalar:

- Kommunikativ kompetentsiya;
- Axborot bilan ishslash kompetentsiyasi;
- Shaxs sifatida o’z-o’zini rivojlantirish kompetentsiyasi;
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi;
- Umummadaniy kompetentsiyalar;
- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetentsiyasi.

Informatika fanidan umumiyl o’rta ta’lim mакtablarida shakllantiriladigan tayanch kompetentsiyalarini amaliyotga joriy etilishini o’quvchilarda “Internetda ma’lumotlarni izlash” mavzusi misolida ko’rib chiqamiz.

Kommunikativ kompetentsiyasi.

- Internet bo’yicha o’rgangan bilimlarini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish va javob berish;
- sinfda o’zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhabatdosh fikrini hurmat qilgan holda o’z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o’z ehtiroslarini boshqarish, boshqa o’quvchilarga nisbatan hurmat, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo’lgan qarorlarni qabul qila olish.



Ta’limni axborotlashtirish jarayoniga ham 20 yildan ortiq vaqt o’tdi. Ushbu davr ichida ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha juda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi – ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlandi, barcha fanlardan elektron o'quv resurslari yaratildi va fanlarni o'qitishda ulardan samarali foydalanib kelinmoqda. Lekin, bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik sohalarda jiddiy o'zgarishlarga sababchi bo'lган globallashuv jarayoni hamda ilmiy- texnik, ayniqsa kommunikatsiya sohasidagi texnologik taraqqiyot jarayoni mutaxassislarning tayyorgarligiga jiddiy talablar qo'yemoqda. Butun dunyo hamjamiyati tan olmoqdaki, XXI asrning bunday chaqiruvlariga javob sifatida bilim – eng beباho resurs sifatida – iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning bilan birga, bilimlarni yaratish, uzatish va ularga ega bo'lish tez suratlarda amalga oshayotgan bir davrda ularni eslab qolish imkoniyati mavjud emas hamda bunga ehtiyoj ham yo'q. Buning o'rniga ushbu bilimlarni yig'ish, tanlash, qayta ishlash, uzatish va amaliyotda qo'llashning vosita va usullariga ega bo'lish muhimroqdir. Bilimlarini kompetentsiyalarga transformatsiya qilish orqali insonlar nafaqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shadilar, balki shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka erishadilar. Bunday kompetentsiyalarni belgilash orqali yoshlarimizni kelajak xayotga qay darajada tayyorlik darajasini baholash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.S.G'ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T. – «Sharq» - 2000 yil.
2. M.X.Lutfullayev. Masofadan o'qitish tizimida multimediali electron darsliklarstrukturasi // Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma'ruzalar to'plami. Toshkent, 2002 yil, 13-14 may.
3. M.M.Aripov, T. Imomov va boshqalar «Informatika, axborot texnologiyalari»T. TDTU, O'quv qo'llanma, 1-2 qism, 2002, 2003 y.
4. Yuldashev U.A., Bo'lajak mutaxassislarning web-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish, UzMU xabarları, 2022-1/1/2, 165.
5. J.D.Saidov. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021.